



## XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI DANG‘ARA TUMAN KENGASHI QARORI

2023 - yil «10» - avgust

VI-81-83-11-155-K/23

Dang‘ara tuman hokimligi

### **Tumanda aholiga ajratilgan yer maydonlarida tashkil etilgan dehqon xo‘jaliklarining boshqaruv tizimini takomillashtirish va ekin maydonlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-sentabrdagi “Dehqon xo‘jaliklari tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash orqali aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-373-sonli qarori ijrosini ta‘minlash, dehqon xo‘jaliklari tomonidan o‘zlariga ajratib berilgan yer maydonlaridan samarali foydalanish, oziq-ovqat havfsizligi dasturi doirasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni yanada ko‘paytirish, ichki bozorlarda narxlarning barqarorligini ta‘minlash, aholiga sifatli va me‘yorda talab etiladigan mahsulotlar yetishtirishni yanada takomillashtirish maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-sentabrdagi “Dehqon xo‘jaliklari tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash orqali aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-373-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Shokirovning “Dehqon xo‘jaliklari tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash orqali aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-373-son qarori ijrosi yuzasidan axboroti ma‘qullansin.

-dehqon xo‘jaligi yuritish uchun 2022-yilda paxta-g‘alla maydonlari o‘rnidan va boshqa maydonlardan aholiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun ajratib beriladigan yer maydonlari ilovaga muvofiq, qonunchilikda belgilangan tartibda tuman davlat zahirasiga qaytarilishi va davlat mulki sifatida davlat ro‘yhatidan o‘tkazilishi belgilansin.

3. Tuman Ishchi guruhining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

-tashkil etilgan dehqon xo‘jaliklarini boshqarish tizimini takomillashtirish, ularni qo‘llab-quvvatlash, amaliy yordam berish, moliyaviy va huquqiy jihatdan ko‘maklashish hamda amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirib borish maqsadida dehqon xo‘jaliklarining uyushgan **kooperasiyalarini** tashkil qilish va ularning faoliyatini amaldagi tartiblar asosida yuritib borish;

-dehqon xo‘jaliklariga ajratib berilgan yer maydonlariga qishloq xo‘jaligi ekinlarini oqilona va shaffoflik asosida joylashtirish, bunda hududlarning ixtisoslashtirilganligiga alohida e‘tibor qaratish;

-dehqon xo‘jaliklari tomonidan qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlashning vegetatsiya davrida agrotexnik tadbirlarni amalga oshirilishini nazorat qilish va amaliy yordam berish;

-qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish, parvarishlash va hosilni yig‘ishtirib olish davomida talab etiladigan urug‘lik, zarur ko‘chatlar, mineral o‘g‘itlar, yoqilg‘i moylash mahsulotlari, texnika xizmatlarini tashkil qilishda doimiy ko‘maklashish;

-yetishtirilgan hosilni harid qilish, ichki iste‘mol bozorlarida sotish va eksportga yo‘naltirishda dehqon xo‘jaliklariga amaliy yordam ko‘rsatish;

“**Bir mahalla - bir mahsulot**” tamoyili asosida serdaromad mahsulotlar yetishtirish, sanoatni kengaytirish va eksport salohiyatini oshirish;

-yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholining bandligini ta‘minlash, bunda, “**Temir daftar**”, “**Ayollar daftari**” va “**Yoshlar daftari**”ga kiritilgan aholi o‘rtasida ishsizlik darajasini kamaytirish va ularni foydali mehnatga jalb qilish orqali real daromadlarini oshirilishini ta‘minlash;

-mahallalarda faoliyat yuritayotgan hokim yordamchilari bilan hamkorlikda aholiga, shu jumladan, chet eldan qaytgan fuqarolarga tanlov asosida yer maydonlari ajratish va ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha zaruriy choralarni ko‘rish.

4. Kadast agentligining Davlat kadastrlar palatasi Dang‘ara tuman filiali (J.Meliev)ga 2023-yil yer hisobotiga ushbu qarordan kelib chiqib, tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish

masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (Akramov), tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (Shokirov), tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi (Gofurov), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (Usmonov), Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaliklarini rivojlantirish Dang‘ara tumani loyiha ofisi (Raxmatjonov) bilan birgalikda:

- dehqon xo‘jaliklariga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun talab etiladigan moddiy resurslar, ya‘ni urug‘lik, zarur ko‘chatlar, mineral o‘g‘itlar, yoqilg‘i moylash mahsulotlari va boshqa resurslarni yetkazib berish ishlarini tizimli tashkil etsin;

-dehqon xo‘jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ichki iste‘mol bozorlarida erkin savdolarda sotilishini hamda sifatli mahsulotlarni eksportga yo‘naltirishni ta‘minlash bo‘yicha aniq chora- tadbirlarni belgilasin.

6. Tumani hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (Shokirov), tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi (Gofurov), Kadast agentligining Davlat kadastrlar palatasi Dang‘ara tuman filiali (Meliyev) bilan birgalikda dehqon xo‘jaliklari tomonidan yerlardan samarali va maqsadli foydalanilishi yuzasidan qat‘iy nazorat o‘rnatish.

7. Mazkur qaror ijrosini ta‘minlash Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (Shokirov), ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha” doimiy komissiyasi (Boytemirov), “Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha” doimiy komissiya (Yakubjanov), “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni

amalga oshirish, investitsiya va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha" doimiy komissiya (Turdiqulov)lar zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi**



**Sh.Tojixakimov**

Xalq deputatlari Dang'ara tuman Kengashining  
2023-yil 10-avgustdagi  
VI-81-83-11-155-K/23-son qaroriga  
1-ilova

**Dang'ara tumanida faoliyat yuritavotgan, bugungi kunda tuman zaxirasiga qaytarilavotgan ayrim fermer xo'jaliklarining RO'YXATI**

№	Massivlar nomi	Yer maydoni qisman zaxiraga olinayotgan f/x yoki boshqa qishloq xo'jaligi korxonasi nomi	Yo'nalishi	Izoh:	Zaxiraga olinayotgan maydonn kontur raqami	Umumiy maydoni, ga	Ekin yerlar	Kup yillik				Bo'z yer	Pichanzor	Yaylovlar	Qishloq xo'jaligi yerlari jami	Tomorqa yerlar	Meliorativ qurt-his nolatidagi yerlar	O'rmon	Suv ostidagi yerlar	Yo'l, so'qmoq va chorva	Ijtimoiy novit ko'cha va maxdon xo'llari	Ijtimoiy binolar	Jami foydalanil-maydigan yerlar			
								shu jumladan																		
								Jami	bogzor	uzumzor	tutuzor													boshqa mevali ko'chatzorlar		
<b>Dang'ara tumani</b>																										
1	Naymancha massivi	Munavvarxon ko'rki	paxta-g'alla	F/x ixtiyoridagi mavjud jami yer	130,129,128,127,82,84,90,89,93,96,101,102,73,74,75,76,62,64,66,68,58,49,50,28,29,30,31,12,11,69,70,71,56,57,53,25,24,22,21,18,17,15,12,2575,2580,2578,2585,2584,2583,2587,2588,2589,2590,2591,2569,2592,2568,2600,2602,2603,	187,92	158,00									158,00				5,80	4,80		19,32			
					Hokimlik zaxirasiga qaytarilayotgan	18,31,12,11,25,24,22,21,18,17,15,12,	31,15	30,33											30,33							0,82
					F/x ixtiyorida qolayotgan yer	130,129,128,127,82,84,90,89,93,96,101,102,73,74,75,76,62,64,66,68,58,49,50,28,29,30,69,70,71,56,57,53,2575,2580,2578,2585,2584,2583,2587,2588,2589,2590,2591,2569,2592,2568,2600,2602,2603,	156,77	127,67												127,67				5,80	4,80	
<b>Tuman jami</b>				<b>F/x ixtiyoridagi mavjud jami yer</b>	<b>187,92</b>	<b>158,00</b>									<b>158,00</b>				<b>5,80</b>	<b>4,80</b>		<b>19,32</b>				
				<b>Hokimlik zaxirasiga qaytarilayotgan jami yer</b>	<b>31,15</b>	<b>30,33</b>									<b>30,33</b>							<b>0,82</b>				
				<b>F/x ixtiyoridagi qolgan jami yer</b>	<b>156,77</b>	<b>127,67</b>									<b>127,67</b>				<b>5,80</b>	<b>4,80</b>		<b>18,50</b>				